

## ANTROPOMETRIYA, DINAMOMETRIYA VA SPIROMETRIYA О’ТКАЗИШНинг АҲАМИЯТИ

Rashidova Naimaxon Muhammadovna  
2-son Farg‘ona Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi  
Hamshiralik ishi kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya**-ushbu maqolada antropometriya , dinamometriya va spirometriya o’tkazishning ahamiyati yoritilgan bo’lib, mazkur masala yuzadidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tafsiyalar o’z ifodasini topgan.

**Kalit so’zlar:** Izolyator, antropometriya, dinomometr, spirometr, EKG, pedikulyoz, rastomer

**Antropometriya** — odamning jismoniy rivojlanganligini, tanasi va uning qismlarini o‘lchash usullari majmui. Eng oddiy antropometrik tekshirishlarni ham tibbiyot hamshiralari (statsionarlarda, poliklinikalarda, sanatoriylarda, dam olish uylarida) o’tkazadi.

Bo‘yni bo‘y o‘lchagich (rostomer) bilan o‘lchanadi: asbobning maydonchada o‘rnatilgan vertikal tirgovuchi va santimetrlarga bo‘linganqismi bo‘ladi, gorizontal joylashgan surgich tirgovuch bo‘ylab suriladi. Bo‘yni o‘lchashda bemor tirkakka tovoni, dumbalari, kuraklari va ensasini tekkizib, orqa- sini o‘girib turadi. Boshi shunday holatda bo‘lishi kerakki, tashqi eshituv yo‘lining yuqori chekkasi va ko‘z burchaklari bitta gorizontal chiziqda tursin, surgichni boshgacha tushiriladi va shkaladagi bo‘linmalar surgichning pastki chekkasi bo‘yicha sanaladi.

Ayrim hollarda bemorlarning bo‘yi o‘tirgan holatda o‘lchanadi, bu holda bemorning bo‘yiga kursichadan polgacha bo‘lgan masofa qo‘shiladi.



Hali yurmagan yosh bolalarning bo‘y uzunligi maxsus gorizontal bo‘y o‘lchagich bilan o‘lchanadi. Gavda vazni to‘g‘ri o‘rnatilgan va yaxshi muvozanatga keltirilgan o‘nlik tibbiy tarozida nahorga, ich kiyimda, yaxshisi qovuq va ich bo‘shatilgandan keyin o‘lchanadi. O‘g‘ir yotgan bemorlarni o‘tirgan holatda vaznini o‘lchash mumkin. Bemor maydonchaning o‘rtasiga kalitning ko‘tarib qo‘yilgan holatida ehtiyyotlik bilan chiqadi. Bunda qattiq silkinishdan saqlanish lozim. Muvozanat holati yuzaga kelgandan



Gorizontal bo‘y o‘lchagich.

so‘ng kalit pastga tushiriladi. Bunda vazn pastki va yuqorigi ko‘rsatkichlarda yuklar to‘xtagan bo‘linmalarining ikkita soni yig‘indisi bo‘yicha aniqlanadi.


Bolalarning vaznnini o‘lchash uchun maxsus pallali tarozilardan foydalilanadi.



Ko‘krak qafasi aylanasini santimetrli lenta bilan oldingi tomondan to‘rtinchi qovurg‘a bo‘yicha, orqa- dan esa kuraklarning burchaklari ostidan o‘lchanadi. Bemorning qo‘llari pastga tushirilgan bo‘lishi, va u tinch nafas olishi lozim. O‘lchash nafas chiqarish vaqtida, shuningdek maksimal nafas olish cho‘qqisida bajariladi.



Bola vaznini gorizontal tarozida o'lhash, ko'krak qafasi aylanasini o'lhash, o'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash.



O'pkaning tiriklik sig'imi — spirometr asbobida o'lchanadi. Buning uchun bemor chuqur nafas olib, spirometr asbobiga puflaydi. Erkaklarda normada o'pkaning tiriklik sig'imi ayollarnikiga qaraganda katta bo'ladi.

Muskul kuchi — dinamometr asbobida qo'l va oyoqlarda alohida o'lchanadi. Antropometrik o'lhashlardan keyin, hamshira vrach bemorni ko'zdan kechirayotganda ishtirok etadi.

### Dinomometr asbobi



### Foydalaniman adabiyotlar

- 1.Hamshiralik ishi asoslari K.U.Zokirova
- 2.Bemorlarni uyda vashifoxonada parvarish qilishF.G.Nazirov
- 3.Umumi amaliyot hamshiralari uchun amaliy ko'nikmalar to'plami A.Godoev
- 4.Hamshiralik ishi asoslari Q.S.Inomov
- 5.Hamshiralik protakollari

### Qo'shimcha adabiyotlar.

- 1.Axmedov SH.A. «Anatomiya i fiziologiya s patologicheskimi osnovami». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2009 god.
- 2.Ziyamutdinova G.X., Axmedov SH.A. «Normal anatomiya va fiziologiya». Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti, 2009 yil.
- 3.Berejnova I.A. «Spravochnik meditsinskoy sestrь». Moskva, 2005 god.
- 4.Karieva M.T., Maxmudova N.M., Karamatova SH.A. «Reformirovanie zdravooxraneniya v Uzbekistane: problemy i zadachi». Tashkent, 2005 god.
- 5.Muxina S.A., Tarnovskaya I.I. «Osnovy sestrinskogo dela». Moskva, 2005 god.
- 6.Byulleten' - «Assotsiatsiy i ob'edineniy meditsinskix sester v stranax TSentral'no-Aziatskogo regiona» Tashkent, 2003 god.

### Internet saydlari:

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.medical.uz](http://www.medical.uz)